

Samarqand viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2025-yil yanvar-oktabr oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-oktabr oylarida, Samarqand viloyatida jami 15 821,3 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 122,5 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



Hududlar kesimida bajarilgan qurilish ishlari hajmi

	Hajm mlrd so'm	O'sish sur'ati, % da
Samarqand viloyati	15 821,3	122,5
shaharlar		
Samarqand sh.	4 441,6	117,5
Kattaqo'rg'on sh.	250,9	170,5
tumanlar		
Oqdaryo	665,3	123,3
Bulung'ur	306,2	129,1
Jomboy	420,2	122,9
Ishtixon	303,0	125,1
Kattaqo'rg'on	699,4	110,2
Qo'shrabot	344,9	151,7
Narpay	190,7	135,0
Payariq	2 557,8	113,2
Pastdarg'om	996,8	124,3
Paxtachi	203,5	125,8
Samarqand	507,6	182,0
Nurobod	143,6	123,7
Urgut	346,8	116,8
Toyloq	1 053,2	114,8
Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmni qo'shgan holda.	2 389,8	133,9

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)


[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-oktabr oylarida Samarqand viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi turar joy va yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 38,0 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 107,0 % ni tashkil etdi.
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 58,4 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 128,0 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 3,6 % ulushni va 2024-yilning mos davriga nisbatan 157,5 % ni tashkil etdi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxona turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	292,0	1 456,4	37,2
<i>o'sish sur'ati, % da</i>	<i>115,6</i>	<i>5,7 m.</i>	<i>2,0 m.</i>
Kichik korxona va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	3 146,8	7 779,7	534,3
<i>o'sish sur'ati, % da</i>	<i>49,1</i>	<i>121,5</i>	<i>161,3</i>
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	2 574,9	-	-
<i>o'sish sur'ati, % da</i>	<i>141,5</i>	-	-

III. Qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025-yilning yanvar-oktabr oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1 785,5 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 120,4 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 11,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 72,4 % i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 119,4 % ni tashkil etgan holda 11 460,8 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 16,3 % ni yoki 2 575,0 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 141,5 % ni tashkil etdi.

Korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



Hududlar kesimida korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
Samarqand viloyati	1 785,5	11 460,8	2 575,0	120,4	119,4	141,5
<i>shaharlar</i>						
Samarqand sh.	224,9	4 012,5	204,1	132,0	113,9	2,5 m.
Kattaqo'rg'on sh.		180,0	71,0		146,5	3,0 m.
<i>tumanlar</i>						
Oqdaryo	56,8	542,6	65,8	104,2	122,5	158,7
Bulung'ur	26,8	207,4	72,0	164,4	119,5	153,3
Jomboy	38,7	323,1	58,5	2,5 m.	110,2	179,1
Ishtixon	25,6	234,1	43,3	3,2 m.	118,0	120,7
Kattaqo'rg'on	10,1	647,6	41,7	42,9	110,3	175,1
Qo'shrabot	158,1	126,3	60,5	191,2	112,1	191,2
Narpay	6,3	122,9	61,5	194,8	122,1	166,4
Payariq	53,9	2 449,2	54,7	90,1	113,7	123,2
Pastdarg'om	366,9	551,4	78,5	99,3	140,5	2,0 m.
Paxtachi	9,8	133,8	59,9	102,3	117,1	160,3
Samarqand	150,4	290,1	67,1	3,2 m.	152,6	159,5
Nurobod	21,8	67,6	54,3	117,4	122,7	128,0
Urgut	12,6	265,1	69,1	58,2	113,7	168,1
Toyloq	341,7	637,5	73,9	87,0	193,8	36,4
Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmni qo'shgan holda.	281,1	669,6	1 439,1	148,0	116,4	141,5

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Jomboy tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 2,5 m.), Ishtixon tumani (3,2 m.) va Samarqand tumanida (3,2 m.) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Toyloq tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 193,8%), Samarqand tumanida (152,6%) va Kattaqo'rg'on shahrida (146,5%) kuzatildi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;
- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Tayyorlash uchun mas'ul:

Investitsiyalar va qurilish
statistikasi boshqarmasi

Ijrochi:

L. Haitov
66 235-60-82 (3020)

Manzil:

